

**BENEFITSIAR MULKNING SAMARALI BOSHQARILISHIDA FIDUSIAR
MAJBURIYATLARNING AHAMIYATI****Raximova Dilorom Xaitbayevna****Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi****Email: raximovadilorom97@gmail.ru****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14832937>**

Annotatsiya: Fidusiar majburiyatlar asosan halollik, sodiqlik, g'amxo'rlik va oqilona boshqaruv tamoyillari asosida benefitsiar mulkdor manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi.

Mazkur maqolada zamonaviy huquq tizimlarida Benefitsiar mulkni boshqarishda fidusiar munosabatlarning ahamiyati, fidusiar majburiyatlarning shakllanishi va ularning huquqiy munosabatlarni ta'minlashdagi ahamiyati hamda milliy qonunchilikdagi holati tahlil etilib, ushbu sohadagi huquqiy bo'shliqlar va ularni bartaraf etish zarurati asoslab berilgan.

Shu bilan birga milliy qonunchilikda fidusiar va benefitsiar o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni aniq belgilovchi normativ-huquqiy asoslarning yo'qligi tanqidiy ko'rib chiqilib, milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, xalqaro tajribadan kelib chiqib, fidusiar munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash orqali benefitsiar mulkning samarali boshqarilishini ta'minlashning huquqiy asoslari shakllantirilishi lozimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Benefitsiar mulk, fidusiar majburiyat, sodiqlik, g'amxo'rlik, halollik.

**ЗНАЧЕНИЕ ФИДУЦИАРНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В ЭФФЕКТИВНОМ
УПРАВЛЕНИИ БЕНЕФИЦИАРНОЙ СОБСТВЕННОСТЬЮ****Raximova Dilorom Xaitbayevna****Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi****Email: raximovadilorom97@gmail.ru**

Аннотация: Фидуциарные обязательства в основном направлены на защиту интересов бенефициара через принципы добросовестности, лояльности, заботы и разумного управления.

В данной статье рассматривается важность фидуциарных отношений в управлении бенефициарным имуществом в современных правовых системах, формирование фидуциарных обязательств и их значение в обеспечении правовых отношений, а также анализируется состояние национального законодательства, выявляются правовые пробелы и необходимость их устранения.

В статье критически рассматривается отсутствие нормативно-правовых основ, четко определяющих права и обязанности фидуциара и бенефициара в национальном законодательстве, и предлагаются рекомендации по совершенствованию национального законодательства.

Кроме того, исходя из международного опыта, подчеркивается необходимость формирования правовых основ для обеспечения эффективного управления бенефициарным имуществом путем юридического укрепления фидуциарных отношений.

Ключевые слова: Бенефициарная собственность, Фидуциарные обязательства, верность, забота, честность.

THE IMPORTANCE OF FIDUCIARY DUTIES IN THE EFFECTIVE MANAGEMENT OF BENEFICIARY PROPERTY

Raximova Dilorom Xaitbayevna

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: raximovadilorom97@gmail.ru

Annotation: Fiduciary duties are primarily aimed at protecting the interests of the beneficiary based on the principles of honesty, loyalty, care, and prudent management.

This article analyzes the importance of fiduciary relationships in the management of beneficiary property in modern legal systems, the formation of fiduciary duties, and their role in ensuring legal relationships. It also examines the state of national legislation, identifies legal gaps, and emphasizes the need to address them.

Furthermore, the article critically addresses the absence of normative-legal foundations that clearly define the rights and obligations of fiduciaries and beneficiaries in national legislation, and proposes suggestions for improving national laws.

In addition, based on international experience, the article emphasizes the need to establish legal foundations for ensuring the effective management of beneficiary property by strengthening fiduciary relationships legally.

Keywords: Beneficiary property, Fiduciary duties, loyalty, care, honesty.

KIRISH

Mulkdan daromad olishning yangi usullarining paydo bo'lishi, har qanday mol mulkka egasidan mulkni samarali boshqarishi mumkin bo'lgan mutaxassisni topish talabini keltirib chiqaradi.

Bu esa, milliy huquqshunosligimizga anglo-amerika va kontinental huquq tizimlarida amalda bo'lgan mulkni boshqarish institutlari o'rganish hamda bizning mamlakatimizda mavjud bo'lmagan institutlarni huquq tizimimizga moslashtirgan holda qabul qilishdan dalolat beradi.

Bugungi kunda zamonaviy huquqda benefitsiar mulkni boshqarish ikkita modelga ajratiladi: boshqa shaxs yordamida mulkni boshqarish (trast) angliya-amerikada mulk huquqi instituti sifatida hamda ishonchli boshqaruv huquqiy tizimi, majburiyatlar huquqi instituti sifatida kontinental mulk huquqi¹.

Ma'lumki anglo-sakson huquq tizimi bir obyektga ikki subyekt mulk huquqiga ega bo'lish imkonini beradi, sababi bu tizimda ajratilgan mulk huquqi tushunchasi qabul qilingan. Biroq Romano-german huquq tizimiga trustni tadbqiq etish uchun fuqarolik huquqini tubdan isloh qilish kerak. Achinarlisi bizning huquq tizimimizga trust huquqi na majburiyat huquqiga, na mulk huquqiga aloqador deb hisoblash mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fidusiar munosabatlari mulkni benefitsiarning foydasiga boshqarishni nazarda tutib, ko'pincha yuridik shaxs va boshqaruvchi kompaniya o'rtasidagi shartnoma bilan bog'lanadi, bu esa ko'plab hollarda ishonchli boshqaruv shartnomasi bilan taqqoslanadi.

Fidusiar munosabatlarni **V.A. Dozortsev** "Bu majburiyat huquqi emas, balki juda o'ziga xos munosabatlardir", chunki bu konstruktsiya hech bir mavjud shartnomaviy modelga to'g'ri

¹ A.V.Mazaeva Доверительное управление и траст: опыт стран континентального права

kelmaydi² deb ta'kidlagan.

Bu yondashuv fidusiar munosabatlarni majburiyat huquqining an'anaviy modellari, masalan, shartnomalar yoki boshqa o'zaro majburiyatlar bilan tenglashtirish mumkin emasligini anglatadi. Ushbu munosabatlar bir tomonning ikkinchi tomonga ishonch yoki xohish bilan bog'liq bo'lgan huquqiy aloqalasi hisoblanadi. Bu turdagi munosabatlar ko'pincha xususiy mulk huquqi, vasiylik, yoki vakolat va mas'uliyatga asoslangan aloqalar bilan bog'liq bo'lib, mas'uliyat, ishonch va yuksak etika qoidalari katta ahamiyatga egadir.

Benefitsiar mulkni huquqiy qurilishi bo'yicha fidusiar munosabat hisoblanadi. Bu jumlada "fidusiar majburiyatlar" benefitsiar mulkni boshqarishda ishonchli va sadoqatli yondashuvni talab qilayotganini anglatadi. Fidusiar majburiyatlar benefitsiar (foydalanuvchi) mulkni boshqarish jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki fidusiar shaxs bu majburiyatlarni bajarishda faqat foydalanuvchining manfaatlarini ko'zlashga majburdir.

Yakuniy foyda oluvchilar yoki aksiyadorlarning harakatlari ustidan nazarot qiluvchi shaxslar xalqaro miqyosda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Benefitsiar mulkdorlar har doim yuridik shaxs yoki tashkilotlarga misol uchun trast, fond va boshqalarga egalik qiluvchi yoki nazorat qiluvchi jismoniy hisoblanib³, odatda uning mulki uning nomidan halolik, oqilona va sodiqlik asosida fidusiar tomonidan boshqariladi.

Benefitsiar mulkning samarali boshqarilishida Fidusiar majburiyatlar muhim o'rin tutadi, chunki ular mulk boshqaruvchisi (fidusiar shaxs) va mulkdor (benefitsiar) o'rtasida ishonch asosida huquqiy munosabatlarni ta'minlash vositasi hisoblanadi. Ushbu majburiyatlar, odatda, mulkni saqlash, undan samarali foydalanish va benefitsiar manfaatlarini himoya qilishga qaratiladi.

Benefitsiar mulkning samarali boshqarilishida Fidusiar majburiyatlar haqida fikr yuritishdan avval fidusiar tushunchasi hamda mazmunini aniqlab olish maqsadga muvofiq.

Fidusiar tushunchasi asosan ishonchga quriladigan munosabatlar hisoblanib, shaxsning o'zga jismoniy yoki yuridik shaxsning manfaatlarini yo'lida uning nomidan ish olib borishiga nisbatan qo'llaniladi. Bunda halolik, oqilona va sodiqlik asosida ish olib borish fidusiar munosabatlarning asosiy talabi hisoblanadi.

Fransiya fuqarolik kodeksining 2011-moddasiga ko'ra fidusiya bir yoki bir nechta mulkdorlar o'zlariga tegishli bo'lgan mulkni, huquqlarini yoki qimmatli qog'ozlarni yoki ularning birlashmasini bir yoki bir nechta ishonchli shaxslarga topshiradigan kelishuvdir⁴ deb belgilab qo'yilgan.

O'z navbatida benefitsiar mulkning samarali boshqarilishida fidusiar majburiyat benefitsiarning nomidan faqat uning manfaatlarini uchun duty of care (g'amxo'rlik) va duty of loyalty (sodiqlik) bilan harakat qilishga nisbatan foydalaniladi.

Fidusiar majburiyatlar roman -german huquq oilasi rim huquqidan olgan bo'lib, anglo-sakson huquq oilasiga ham hos hisoblanadi. Ushbu huquq oilasida fidusiar majburiyat boshqalarning manfaatlarini yo'lida harakat qilish asosiy o'rin egallaydi.

² Дозорцев В. А. Доверительное управление имуществом (гл. 53) // Гражданский кодекс Российской Федерации.

³ Rakhimova, D. K. (2025). THE CONCEPT OF BENEFICIARY PROPERTY IN CIVIL LAW AND ITS CHARACTERISTICS. Google Scholar, 1(1).

⁴ Code Civil 1804. Version consolidée au 1 janvier 2016. [URL: http://www.legifrance.gouv.fr/affichCode.do?cidTexte=LEGITEXT000006070721](http://www.legifrance.gouv.fr/affichCode.do?cidTexte=LEGITEXT000006070721).

Fidusiar majburiyatlar odatda bir tomon ikkinchi tomonga ishonch asosida o'z huquq va vakolatlarini ishonib topshirganida, ushbu huquqiy munosabatlardan kelib chiqadi. Ushbu majburiyatlar taraflar o'rtasida maxsus ishonch munosabatlari mavjud bo'lgan hollarda yuzaga keladi. Quyida fidusiar majburiyatlarning eng ko'p uchraydigan kelib chiqish holatlari sifatida ko'rishimiz mumkin:

- Bitimlar asosida (Mulkni boshqaruvga topshirish to'g'risidagi shartnoma tuziladi).

- shaxsning boshqa shaxsning harakatlarini boshqarish yoki unga ta'sir

o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lganda (mulkni faqat benefitsiar manfaatlariga xizmat qilish maqsadida boshqarishi kerak).

Milliy qonunchiligimizda fidusiar majburiyatlar ishonchga asoslangan har handay bitimdan kelib chiqishi mumkin. Misol uchun Fuqarolik kodeksining 849-moddaga ko'ra Mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi bo'yicha bir taraf (boshqaruvning muassisi) ikkinchi tarafga (ishonchli boshqaruvchiga) mol-mulkni muayyan muddatga ishonchli boshqaruvga topshiradi, ikkinchi taraf esa ushbu mol-mulkni boshqaruvning muassisi yoki u ko'rsatgan shaxs (foyda oluvchi) manfaatlarini ko'zlab boshqarish majburiyatini olishi belgilangan.

Shu bilan birga Fuqarolik kodeksining 234-moddasiga ko'ra majburiyat bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, kreditor esa — qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'lishi belgilangan. Fidusiar majburiyatning farqli jihati shundaki bunda qarzdor yoki kreditor emas balki ishonchli shaxs o'ziga olgan majburiyatni sodiqlik va g'amho'rlik bilan bajarishga majburiyat oladi.

Ushbu majburiyat subyektlari fidusiar hamda benefitsiar hisoblanadi.

Fidusiar (ishonchli shaxs) qachonki boshqa shaxsga tegishli bo'lgan mol-mulk va mulkiy huquqlarni yoki boshqa shaxsning huquqlarini *tasarruf etish* to'g'risida qaror qabul qilish jarayoni ustidan vakolat mavjud bo'lgan taqdirdagina ishonchli shaxs sifatida tan olinadi. Shu jihati bilan ham boshqa ishonchga asoslangan majburiyatlardan farqlanadi.

D.Imomniyozovning ta'kidlashicha fidusiar (ishonchga asoslangan) huquqiy munosabatlar, bir shaxsning (fidusiar) shartnoma yoki boshqa yuridik faktlar asosida, o'z ixtiyori bilan boshqa shaxsning nomidan uning manfaatlari yo'lida ish yuritadigan yohud boshqa shaxsning mol-mulki boshqaradigan va (yoki) boshqarishni amalga oshiradigan munosabat hisoblanadi⁵.

Bizningcha fidusiarning asosiy majburiyati benefitsiar manfaatlariga to'liq sodiqlik va halollik bilan xizmat qilishdir. U o'ziga ishonib topshirilgan mol-mulkni faqat benefitsiar shaxsning foydasiga va uning manfaatlariga zid kelmaydigan tarzda boshqarishi lozim. Bu mol-mulkni samarali ishlatish, uning qiymatini saqlab qolish yoki oshirish orqali benefitsiarga maksimal foyda keltirishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq jamiyatning direktori (boshqaruv raisi) jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, shtatlarni

⁵ Imomniyozov.D. Korporatsiya ijro organlarining fidutsiar majburiyatlari qiyosiy huquqiy tahlili: d.imomniyozov@gmail.com; SJIF 2021: 5.423

tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi deb belgilab qo'yilgan. Bundan ko'rinib turibdiki Korporativ boshqaruvda bu fidusiar munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi korporatsiyalarda boshqaruv to'raligicha mazkur institut asosida amalga oshiriladi desak adashmagan bo'lamiz.

Bunda ishonchli shaxs sifatida korporatsiya dorektori hisoblanadi. Chunki aynan direktorlar korporatsiyaning haqiqiy egasi (benefitsiar) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq fidusiar majburiyatlarni bajarishga kirishadi. Mazkur shartnoma ishonchli shaxsga korporatsiyani sodiqlik va g'amho'rlik asosida o'z hohishiga ko'ra boshqarish huquqini taqdim etadi.

Oddiyroq qilib tushuntiradigan bo'lsak direktor shaxsiy manfaatlarini benefitsiar manfaatlaridan yuqori qo'ygan hollarda va buning oqibatida korporatsiya zarar ko'rganda fidusiar munosabatlar ishga tushadi va yetkazilgan zarar to'liq ishonchli shaxs tomonidan qoplanadi.

Fidusiar majburiyatni buzganlik uchun javobgarlik jazolovchi xususiyatga ega bo'lib, faqat buzilish faktining o'zi uchun qo'llaniladi va bu sabab-oqibat aloqasini o'rnatishdan voz kechishni taqozo etadi. Fidusiarga adolatli miqdorda to'lov (equitable compensation) tayinlanadi, bu esa, birinchidan, zarar miqdorini isbotlashni osonlashtiradi, ikkinchidan, boshqaruvchiga profilaktik ta'sir ko'rsatadi: u o'z noqonuniy xatti-harakatidan olganidan ancha ko'p miqdorda tashkil etuvchiga zararlarni qoplashga majbur bo'ladi.

Fidusiar majburiyatni buzganlik uchun fidutsiarning aybi avvaldan isbotlangan deb hisoblanadi, bu esa unga o'zining aybsizligini yoki shartnoma shartlarini buzmagandligini isbotlash majburiyatini yuklaydi. Boshqaruvchi tomonidan amalga oshirilgan bitimlar haqiqiy emas deb hisoblanadi va yuqori darajadagi isbotlash standartlari qo'llaniladi (boshqaruvchi o'zining xatti-harakatlarining qonuniyligini aniq dalillar bilan tasdiqlashi shart). Boshqaruvchining javobgarligi qat'iy javobgarlik (strict liability) hisoblanadi⁶.

An'anaviy nazariyalarga ko'ra direktorning fidusiar majburiyatlari ikkiga ajratiladi. Sadoqat – sodiqlik (duty of loyalty) va g'amxo'rlik (duty of care) burchlari⁷.

Xulosa qiladigan bo'lsak benefitsiar mulkdorga tegishli mol-mulkini shartnoma yoki boshqa yuridik faktlar asosida fidusiar tomonidan bosqaruvni amalga oshirishi hisoblanadi.

Ingliz huquqida mazkur munosabatlar amalga oshirilishiga to'xtaladigan bo'lsak, ingliz huquqida mazkur institut ancha yillar davomida ishlab chiqilgan

Hususan fidusiar majburiyatlarni o'z ichiga olgan "Kompaniyalar tog'risida"gi qonun ishlab chiqilgan bo'lib, kompaniya direktori o'z vazifasini bajarishda, yaxshi niyatda, kompaniyaning muvaffaqiyatga erishishini va uning a'zolari manfaatiga xizmat qilishini eng ko'p ehtimol qiladigan tarzda harakat qilishi shart, va buni bajarishda quyidagilarni (boshqa omillar bilan bir qatorda) hisobga olishi kerak:

- har qanday qarorning uzoq muddatli oqibatlari,
- kompaniya xodimlarining manfaatlari,
- kompaniyaning yetkazib beruvchilar, mijozlar va boshqa shaxslar bilan ishbilarmonlik munosabatlarini rivojlantirish zarurati,

⁶ Зикун И. И. Генезис категории "фидуциарная собственность" в европейском гражданском праве: ("Вестник гражданского права", 2018, N 6)

⁷ Э. Беневоленская. Фидуциарные обязательства директора компании по английскому праву. Журнал российского права №4 — 2006

- kompaniya faoliyatining jamiyat va atrof-muhitga ta'siri,
- kompaniyaning yuqori darajadagi ishbilarmonlik qoidalariga rioya qilish obro'sini saqlab qolish istagi, va kompaniya a'zolari o'rtasida adolatli munosabatni ta'minlash zarurati⁸.

Odatda benefitsiar mulkni boshqarishda fidusiar huquqiy munosabatning zaruriy sharti fidusiar huquq taqdim etilgan shaxs o'z ixtiyori va mustaqil qaror qabul qilishi hisoblanadi. Fidusiarda mazkur huquq bo'lmasa, ishonchli shaxs hisoblanmaydi.

Angliya huquqida "Soyadagi direktor" atamasi mavjud bo'lib bu atama benefitsiar mulkdor qarorlar qabul qilish kabi asosiy vazifa bajarib, direktorning mustaqiligi cheklanib faqat nomiga fidusiar hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda mashhur bo'lgan usul "Korporativ niqob" ni olib tashlash usuli Angliya sudlarida aynan yuqoridagi holatlar yuzaga kelganda, ya'ni aksionerlar ular tayinlagan direktorning majburiyatlarini bajarmagan hollarda unga nisbatan javobgarlik belgilashni talab qilgan hollarida amalga oshiriladi.

"Korporativ niqob" larni olib tashlash konsepsiyasi faqatgina nazorat qiluvchi ishtirokchilar/aksiyadorlar javobgarligini nazarda tutmaydi. Ushbu konsepsiya kompaniyaning haqiqiy benefitsiarlari haqida ma'lumot olish maqsadida, shuningdek hattoki kompaniyani nazorat qiluvchi shaxslar foydasiga ham qo'llanishi mumkin⁹.

Fuqarolik kodeksining 48-moddasiga muvofiq Agar yuridik shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi shu yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalarni berish huquqiga ega bo'lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki mulkdorining yoxud yuridik shaxsning boshqaruv organi tarkibiga kiruvchi shaxsning yoki qarzdorning ishlarini boshqaruvchi shaxsning g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo'lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga qonunga muvofiq uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkinligini nazarda tutadi.

Shuningdek kodeksning 45-moddasida qonunga yoki yuridik shaxsning ta'sis

hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs nomidan ish olib boradigan shaxs o'zi vakili bo'lgan yuridik shaxs manfaatlari yo'lida halol va oqilona ish olib borishi kerak. U yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari, a'zolari) talabi bilan, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, yuridik shaxsga yetkazgan zararini to'lashi shart deb belgilanganlini o'zi milliy qonunchiligimizda fidusiar majburiyat aniq belgilab qo'yilmagan bo'lsada, lekin aynan fidusiar majburiyatni nazarda tutganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa:

Yuqorida ta'kidlanganidek fidusiar majburiyat o'z ichiga sodiqlik, ishonchlilik, ihtiyoriylik, g'amxo'rlik, sodiqlik kabi majburiyatlardan kelib chiqadi.

Bunda benefitsiar mulkni boshqarishda yuqorida keltirilgan majburiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Fidusiar munosabatlarni o'rganib chiqish asnosida milliy qonunchilikga tadbiq qilinishi bo'yicha bir necha takliflar ishlab chiqildi.

Avval ta'kidlaganimizdek milliy qonunchiligimizda fidusiar munosabatlar mexanizmlari ishlab chiqilmagan bo'lsada, umumiy ma'noda ta'kidlangan.

⁸ CompanyAct2006, Ch. 2 Part10// <http://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/46/contents>

⁹ Ibrohimov Azimjon Abdumomin O'g'li Korporatsiyani boshqarishda fidutsiar majburiyatlar va ularni o'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari // ORIENSS. 2021. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/korporatsiyani-bosh-fidutsiar-mazhburiyatlar-va-ularni-zbekistonda-llash-imkoniyatlari> arishda-fidutsiar-mazhburiyatlar-va-ularni-zbekistonda-llash-imkoniyatlari (дата обращения: 07.12.2021).

Bizningcha:

Birinchidan, qonunchiligimizda benefitsiar mulk hamda fidusiar munosabatlar deyarli tartibga solinmagan. Bu holat mazkur munosabatlarni amalda samarali qo'llashda huquqiy bo'shliqni yuzaga keltirishini inobatga olgan holda, benefitsiar mulkni aniqlashda uni boshqaruvchi shaxs (fidusiar) va haqiqiy mulkdor (benefitsiar) o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni aniq belgilovchi normani milliy qonunchilikka kiritish;

Ikkinchidan, qonunchilikda benefitsiar mulkdor hamda fidusiar majburiyatlari hamda majburiyatdan kelib chiqadigan javobgarlik masalalari batafsil yoritilishi maqsadga muvofiq;

Uchinchidan, foydaning benefitsiarga o'tishining kafolat mexanizmini yaratish.

Bundan tashqari fidusiar munosabatlar hamda benefitsiar mulkka doir masalalar milliy adabiyotlarimizda deyarli mavjud emas. Bu esa mazkur munosabatlarni chuqur o'rganishni hamda qonunchilikka tadbiiq etishdan dalolat beradi.

References:

1. Fuqarolik kodeksi (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2020-y.03/20/603/0071-son);
2. Акциядорлик jamiyatlari va akцияdorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.10.2020y.03/20/640/1348-son);
3. A.V.Mazaeva Доверительное управление и траст: опыт стран континентального права
4. Imomniyozov.D. Korporatsiya ijro organlarining fidutsiar majburiyatlari qiyosiy huquqiy tahlili: d.imomniyozov@gmail.com: SJIF 2021: 5.423
5. Зикун И. И. Генезис категории "фидуциарная собственность" в европейском гражданском праве: ("Вестник гражданского права", 2018, N 6)
6. Э. Беневоленская. Фидуциарные обязательства директора компании по английскому праву. Журнал российского права №4 — 2006
7. Rakhimova, D. K. (2025). THE CONCEPT OF BENEFICIARY PROPERTY IN CIVIL LAW AND ITS CHARACTERISTICS. *Google Scholar*, 1(1).
8. CompanyAct2006, Ch. 2 Part10// <http://www.legislation.gov.uk/ukpga/2006/46/contents>
9. Ibrohimov Azimjon Abdumo'min O'g'li Korporatsiyani boshqarishda fidutsiar majburiyatlar va ularni o'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari // ORIENSS. 2021. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/korporatsiyani-bosh-arishda-fidutsiar-majburiyatlar-va-ularni-zbekistonda-llash-imkoniyatlari> (дата обращения: 07.12.2021).
10. Дозорцев В. А. Доверительное управление имуществом (гл. 53)// Гражданский кодекс Российской Федерации.